

ERTAK VA ADABIY ERTAKLAR QIYOSI

Islomova Gulshoda Muhiddin qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ertak va adabiy ertak janrlarining nazariy asoslari, ularning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari ilmiy tahlil qilinadi. Ertaklarning xalq og‘zaki ijodi mahsuli sifatidagi xususiyatlari, adabiy ertaklarning esa muallifga xos individual badiiy tafakkur asosida yaratilishi asoslab beriladi. Shuningdek, har ikki janrning syujet qurilishi, obrazlar tizimi, g‘oyaviy yo‘nalishi va tarbiyaviy ahamiyati qiyosiy jihatdan o‘rganiladi. Tadqiqot natijasida ertak va adabiy ertaklarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi hamda ularning adabiy jarayondagi o‘rni aniqlanadi.

Abstract: The article presents the theoretical foundations of the genres of fairy tales and literary fairy tales, legal conclusions, production processes, and the results of similar and different scientific analysis of fairy tales. The creation of fairy tales, as a product of folk oral creativity, based on the individual thinking of the main author is justified. The plot structure, image system, ideological direction and educational significance of both genres are studied through comparative control. The interdependence of the fairy tale and literary fairy tales and their role in the judicial process.

Kalit so‘zlar: ertak, adabiy ertak, xalq og‘zaki ijodi, badiiy adabiyot, janr, obraz, fantastika, muallif uslubi, bolalar adabiyoti, estetik tarbiya, g‘oya, kompozitsiya

Keywords: fairy tale, literary fairy tale, folk art, fiction, genre, image, fiction, author's style, children's literature, aesthetic education, idea, composition

Ertaklar insoniyat madaniyatining eng qadimiy qatlamiga mansub bo‘lib, ular xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi. Xalq og‘zaki ijodining muhim janri sifatida ertaklar asrlar davomida og‘zaki shaklda yashab kelgan. Yozma adabiyot taraqqiyoti natijasida esa ertak janri yangi bosqichga ko‘tarilib, adabiy ertak shaklida rivoj topdi. Adabiy ertaklar xalq ertaklari an‘analariga

tayangan holda yaratilgan bo‘lsa-da, ular muayyan muallifning badiiy tafakkuri, estetik qarashlari va individual uslubi bilan ajralib turadi. Shu bois ertak va adabiy ertaklarni qiyosiy o‘rganish adabiyotshunoslikda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Ertak — xalq og‘zaki ijodining epik janrlaridan biri bo‘lib, unda hayotiy va fantastik voqealar orqali insoniy fazilatlar targ‘ib etiladi. Tadqiqotchilarning fikricha, ertaklar ibtidoiy jamiyat davridayoq shakllangan va keyinchalik turli madaniy qatlamlar ta‘sirida boyib borgan. Ertakda fantastik voqealar va axloqiy g‘oyalar mujassam. Ular avloddan-avlodga og‘zaki tarzda yetib kelgan.

Adabiy ertak yozma adabiyot mahsuli bo‘lib, muallifning qarashlari, estetik didi va ijtimoiy munosabati bilan boyitiladi. O‘xshash jihatlar: Har ikkisi ham tarbiyaviy ahamiyatga ega, fantastik obrazlarga boy va yaxshilik hamda yomonlik kurashini aks ettiradi. Farqli jihatlariga keladigan bo‘lsak, ertak anonim bo‘lsa, adabiy ertak muallifga ega. Ertak og‘zaki, adabiy ertak esa yozma shaklda yaratiladi. Adabiy ertaklar xalq ertaklari asosida shakllanib, keyinchalik mustaqil badiiy janrga aylangan. O‘zbek bolalar adabiyotining shakllanishida va adabiy ertak janrining rivojida G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Mirtemir, Quddus Hikmat kabi ijodkorlarning badiiy merosi muhim o‘rin tutadi. Ularning ertak va ertaksimon asarlarida xalq og‘zaki ijodi an‘analari mualliflik badiiy tafakkuri bilan uyg‘unlashib, bolalar uchun tushunarli va ta‘sirchan obrazlar yaratilgan.¹ Ayniqsa, Hamid Olimjonning poetic ertaklarida fantaziya va milliy ruhning uyg‘unligi janr taraqqiyotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Keyingi davr o‘zbek bolalar adabiyotida adabiy ertak janrining yangi bosqichi Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodi bilan chambarchas bog‘liq. Uning asarlarida ertak unsurlari real hayot voqealari bilan uyg‘unlashib, bolalar tafakkurini faollashtiruvchi badiiy makon yaratiladi. Masalan: “Tagob qishloq ertaklari”, “Donishmand bobo ertaklari” to‘plamlarini olishimiz mumkin. Shuningdek, Anvar Obidjon ijodida adabiy ertaklar zamonaviy ijtimoiy muammolarni ramziy obrazlar orqali yoritish vositasiga aylangan bo‘lib, bu holat janrning funksional imkoniyatlarini kengaytirgan. Xususan, ertaklarda umumlashgan va an‘anaviy obrazlar ustunlik qilsa,

¹ O‘zbek bolalar adabiyotida adabiy ertaklar taraqqiyot, Magistr: Ziyodullayeva Shohsanam.

adabiy ertaklarda individual, psixologik jihatdan chuqur ishlangan obrazlar tizimi shakllanadi. Shuningdek, adabiy ertaklar orqali zamonaviy ijtimoiy muammolar, inson ruhiyati va murakkab hayotiy masalalar ham badiiy talqin etilishi ularning imkoniyatlari kengayganini ko'rsatadi. Bu esa adabiy ertakni mustaqil va mukammal badiiy janr sifatida baholashga asos beradi.

Umuman

olganda, ertak — xalq tafakkurining mahsuli sifatida an'anaviylikni ifodalasa, adabiy ertak — shu an'analarni ijodiy rivojlantiruvchi va yangilovchi hodisa hisoblanadi. Har ikki janr ham yosh avlodni tarbiyalash, ularning estetik didini shakllantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Xulosa

Ertak va adabiy ertaklar bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ularning yaratilish usuli va mazmunida farqlar mavjud. Ertaklar bolalar tarbiyasi, tasavvur rivoji va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Qiyosiy tahlil jarayonida aniqlanishicha, ertak va adabiy ertaklar o'rtasida syujet qurilishi, fantastik obrazlar tizimi va tarbiyaviy yo'nalish jihatidan o'xshashliklar mavjud bo'lsa-da, ularning mualliflik, yaratilish shakli, uslubiy xususiyatlari hamda g'oyaviy talqinida sezilarli farqlar kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor. Adabiyot muammolari. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
2. Anvar Obidjon. Bolalar uchun she'r va ertaklar.
3. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
4. Hamid Olimjon. Ertak va dostonlar Toshkent: Adabiyot va san'at, 1989. Mirtemir. Bolalar adabiyoti va tarjimalar. –Toshkent: Fan, 1990.